

Kadirniyazova Nargiza Kenesbay qizi

Berdaq nomidagi QDU magistranti

elek.poch nargizaqadirniyazova@icloud.com

Turkiy xalqlar adabiyotida transformatsiya masalasi alohida o‘rin tutadi. Transformatsiya deb asarning boshqa janrga o‘tishi, qayta ishlanishi yoki to‘ldirilishi jarayoniga aytamiz. Transformatsiyada janr, syujet, obraz, vaqt va makonga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘zbek adabiyotida Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni keyinchalik drama shakliga o‘tib, teatrdan sahnalashtirilgan. Qoraqalpoq adabiyotida esa, “Alpomish” dostoni asosida N.Davqarayevning “Alpomish” musiqali dramasi, “Qirq qiz” dostonini esa, A.Shamuratov bilan I.Yusupovning “Qirq qiz” pesasida, “Sharyar” xalq eposi motivlari asosida yaratilgan. Q.Matmuratovning “Sharyar” dramasi bilan Qoraqalpoq folklorining I-tomida berilgan “O‘jar bola” ertagi asosida “O‘mirbek va Tazcha” komediyasining Q.Matmuratov tomonidan yaratilganini ko‘rishimiz mumkin.

Transformatsiya masalasi bo‘yicha rus olimlarining ishlarida, qozoq olimlaridan professor J.Qoblanovning maqolalarida, qirg‘iz adabiyotida A.Qalchaevaning [1], o‘zbek adabiyotida N.Tursunovanning [2], qoraqalpoq adabiyotida professor Q.Jarimbetovning [3], A.Seytbekovning [4,5], M.Palimbetovanning “Mustaqillik davri qoraqalpoq dramaturgiyasi (g‘oya-mavzu, janrlar, obrazlar)” [6] dissertatsiyalarida transformatsiya masalalari bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Qoraqalpoq adabiyotshunosligida A.Seytbekovning “K.Raxmanov ijodida epik va dramatik asarlar sintezi” doktorlik dissertatsiyasi avtoreferatida “U dunyoga tashrif” pyesasi “Oqibat” romani asosida, “Laqqilar shifoxonada” komediyasi “Nóser” qissasi asosida qayta yozilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Bundan tashqari A.Seytbekovning “Komediya aylangan qissa” [6] maqolasida ham “Laqqilar shifoxonada” komediyasi “Nóser” qissasi asosida qayta ishlangani, sahnaviy o‘yinining uslublari, shuningdek “Laqqilar shifoxonada” komediyasi, komediyadagi obrazlarni qissadagi obrazlar bilan solishtirib o‘rgangani yaqqol ko‘zga tashlanadi.

“O‘mirbek va Tazcha” komediyasida O‘mirbek laqqi obrazining o‘zida transformatsiya deb ayta olamiz. Sababi Chimboy shahrida yashaganligi, uning latifalari xalq og‘zida yurganligi, xalqning mangu yodida qolishi so‘zsiz. Yu.Paxratdinov bilan hamkorlikda I.Yusupovning O‘mirbek laqqi bo‘yicha maxsus ishlari bor.

Shu bilan birga, nafaqat dostonlarni dramaga aylantirish, balki ertaklarni ham dramaga aylantirish masalasi ham dolzarbdir. Buning yaqqol dalili sifatida Qipchoqboy Matmuratovning “O‘mirbek va Tazcha” komediyasining syujeti Qoraqalpoq folklorida “O‘jar bola” nomli xalq ertagi asosida yaratilgan. “O‘jar bola” asaridagi ayrim obrazlar va voqealarning

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

qo‘llanilganligini ko‘ramiz. Ertakdagi syujet, obrazlar komediyada o‘zgartirib qo‘llanilgan. Masalan, “Kimda-kim g‘azablansa, o‘ldiraylik” degan boyning shartini “O‘mirbek va Tazcha” komediyasida O‘mirbekning “Kimda-kim g‘azablansa, shu lahza qulga aylanadi” degan shartlarining o‘xshashliklarini ko‘ramiz. Bundan tashqari, ertakda boy obrazi nomi keltirilmay berilsa, komediyada Tawasar boy nomi bilan mashhur.

Ertakning syujeti asosan, erta davrdagi turmush tarzini, boylarning hayotini, o‘sha davrda qanday ish qilib, kun kechirganliklarini ochib berishga bag‘ishlangan. Biz, bu epizodlarning komediyada Tawasar boy obrazi bilan O‘mirbek laqqi, Temirbek, Tazcha obrazlari orqali ochib berilganligi ma‘lum. Boylarning poda-poda mollarini, suruv-suruv qo‘ylarini boqib, mehnat qilaman deb borgan odamlarga ish haqini to‘liq bermaganligini “O‘jar bola” ertagidagi boyning uyiga borgan ikki yigitni ishlatib, mollarini boqtirib, tuyaning ko‘ziday zog‘ora berib, ochdan qoldirib, shartlashish o‘yinida yengildingiz deb, o‘ldirib yuboradi. Komediya esa, Tawasar boy bilan so‘zga chechan O‘mirbekning shartlashmoq o‘ynab, Temirbek jo‘rasini qullikdan (ya‘ni Tawasar boyning mollarini boqishdan) qutqarib, boyni o‘yinda yengadi.

“O‘jar bola” ertagida uch aka-uka bola deb berilgan. Biz esa, komediyada xuddi shunday, uch bolani uchratamiz. Bular Temirbek, Tazcha, O‘mirbek. Ertakda eng so‘nggi ukasi ikki akasining boy tomonidan o‘ldirilganligini eshitib, boydan o‘ch oladi. Komediya Temirbek bilan Tazchani O‘mirbekning boy bilan shartlashmoq o‘ynab qutqarganligi va Tawasar boyni o‘yinda yengganligi ertak syujetiga o‘xshaydi.

Bundan tashqari ertakda boyning bolasi tentak obrazida berilgan. “O‘mirbek va Tazcha” komediyasida ham Tawasar boyning o‘g‘li Labaq obrazi tentak, axmoq bo‘lib tasvirlangan. Ikki asardagi boyning bolasi ham boyning g‘azablanishiga imkon yaratuvchi obraz sifatida aks ettirilgan. Ertakda bolasining tentaklik qilganiga “yerga tortib ursang” deb aytib og‘zini yumguncha o‘jar bola boyning bolasini paxsaga tortib o‘ldiradi. Komediya Labaq obrazi Tawasar boyning to‘ylarda urishtirib yurgan qo‘chqorini so‘yib, boyning g‘azabiga tegadi. Bunda, dono xalqimizning “Og‘zi qiyshiq bo‘lsa ham boyning bolasi gapirsin” - degan maqolining o‘zida chuqur ma‘no bor. Ayrim boylarning bolalarini erkalatib o‘stirib, erkalab tarbiyalaganligini, hech qanday qiyinchilik ko‘rmay, o‘sganligini ikki asarda ham ochiq oydin tasvirlagan.

Ertakdagi O‘jar bola nomi bilan tanilgan uch aka-ukaning eng kichigi “O‘mirbek va Tazcha” komediyasidagi O‘mirbek laqqi bilan taqqoslab, ikkovining o‘rtasida bir qancha o‘xshashliklarni ko‘ramiz. Masalan, O‘jar bola ertagida bola topqir, o‘jar obrazida tasvirlansa, O‘mirbek komediyada O‘mirbek laqqi qoraqalpoq xalqining so‘zga chechan, topqir, qaysar, mard, botir sifatida gavdalanadi. Bu ikki boladagi xarakter qoraqalpoq xalqining so‘zga chechan, laqqi, topqirligi, qaysar, o‘jar, o‘z maqsadi yo‘lida hech narsadan qaytmaydigan fe‘llari to‘liq ochib berilgan.

“O‘jar bola”

— *Ógiz qayda? – deydi bay baladan.*

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

— *Bergeniń túyeniń kózindey jalǵız zaǵara, ol ne bolsın maǵan. Ash boldım, onnan keyin ógizdi soyıp jedim. Xá, bay aǵa, ashıwlandıńba? deydi bala. [7]*

«O‘mirbek va Tazsha»

— *Tawasar: - (Jilap otırıp). Adamlardıń durısılı perzent tileytuǵını da usı eken-ǵo!*

— *Ómirbek: - Onıń ushın balanı durıslap tárbiyalaw kerek-tá!*

— *Tawasar: - Sen barsań-á, áy!...*

— *Ómirbek: - Biz shártleskenimizde, bir-birewge ashıwlanbaǵaylıdan edi. Sen ashıwlanıp qoydıń, meni urdıń - shártten utıldıń, bay aǵa, utıldıń!*

Tawasar: - Usılardıń hámмесin sonıń ushın islep otırǵanıńdı, endi sezıp atırman, sen ǵana júwernemektıń! Xá!... (114-bet).

Yuqoridagi “O‘jar bola” ertagidan keltirilgan misollar bilan “O‘mirbek va Tazcha” komediyasidan keltirilgan misollarni solishtirib qarasak, ikkala asarda ham shartlashish o‘yini, boyning yutqazishi haqida aytilgan. Shunga qaramay, komediyada bir qancha o‘zgarishlar kiritilgan. Bunda, ertakda boyning ikki yuz bosh molini so‘yib yeb qo‘ysa ham, onasini, bolasini o‘ldirsa ham shartlashish o‘yinidan yutqazganini tan olgisi kelmaganligini, komediyada esa, boy faqat bir qo‘chqorini so‘ydirib, ariga talatganining o‘ziga boy O‘mirbekdan yutqazganini tan olib, o‘zi qul bo‘lishning o‘rniga Temirbekni qullikdan ozod etadi. Biz, bundan har bir inson o‘zining mag‘lubiyatini tan olishda bir mardlikning belgisi ekanligini komediyada singdira olganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolamizda “O‘mirbek va Tazcha” komediyasida transformatsiya masalasi alohida o‘rin tutishi aytilgan. Transformatsiya adabiyotimizning, ayniqsa teatrimizning boyishiga, ertak mazmunining chuqurlashuvi va yangilanishiga olib keladi. Ya‘ni ertakni komediyaga aylantirib, unga o‘zgartirishlar kiritib, hajmini kengaytirib, obrazlar yaratib, qoraqalpoq xalqining so‘zga chechan, latifayu hangomalari bilan mashhur bo‘lgan O‘mirbek laqqi obrazini yarata olishda - bu bir muallifning mahorati.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Қалчаева А. Эпостук мотивдердің кыргыз драматургиясында идеялык-көркем иштелиши мәселелери: Филол. илим. канд. ... дис. автореф. – Бишкек, 1993.
2. Турсунова Н.Х. Ҳозирги ўзбек драматургиясида фольклор стилизацияси. – Тошкент: 2020.
3. Жәримбетов Қ. Дәстан, тарийх хәм драма (Жазыўшы К.Алламбергеновтың Әмир Темир хәм Ер Едиге. (Уллы атланыс) тарийхый музыкалы драмасын оқығанда туўылған гейпара ойлар). // Қарақалпақ әдебияты, 2017. №7 (79).
4. Сейтбеков Ә. К.Рахманов ижодида эпик ва драматик асарлар синтези. – Нукус: 2020.
5. Сейтбеков Ә. Комедияға айланған повесть. // Әмиудәрья, 2012. №3.
6. Палимбетова М. Ғәрезсизлик дәўири қарақалпақ драматургиясы. Ташкент-2023.15-bet.
7. Қарақалпақ фольклоры. I том. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1977.